

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019. FIL.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ALISHER
NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

AZIXONOVA SARVINOZ YOQUBJON QIZI

**AZIMIYNING “MUROD-UL-OSHIQIN” DEVONI VA UNING
MATNIY-QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Azizxonova Sarvinoz Yoqubjon qizi

Azimiyning “Murod-ul-oshiqin” devoni va uning
matniy-qiyosiy tadqiqi..... 3

Азизхонова Сарвиноз Ёқубжон кизи

Диван Азимий «Мурад-ул-ашикин» и его текстологическо-
сопоставительный анализ 25

Azizkhanova Sarvinoz Yokubjon kizi

Azimi`s “Murod-ul-ashiqin” devan and its textual and comporative
investigation..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 54

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019. FIL.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ALISHER
NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

AZIXONOVA SARVINOZ YOQUBJON QIZI

**AZIMIYNING “MUROD-UL-OSHIQIN” DEVONI VA UNING
MATNIY-QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD / Fil482 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<http://www.tsuull.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘raboyev Otabek Rustambek o‘g‘li
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rafiddinov Sayfiddin Sayfulloh o‘g‘li
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____da tarqatildi.

(2023 yil «___» _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., dosent

R.F.Zohidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.f.d.,
dosent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi ko'p yillardan beri adabiy manbalarni turlicha aspektlarda tadqiq etib kelmoqda va bu boy adabiy manbalar insoniyat tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy xazina ekanligini isbot qilmoqdadir. Adabiy manbalarni o'rganish va ulardagi eng muhim hamda ulug' sifatlarni yosh avlodga yetkazish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, har bir xalqning o'z tili, madaniyati, san'ati, o'ziga xos urf-odatlarini boy adabiyot manbalari va ulardagi asarlar bilan boyib bormoqda. Ayni damda adib ijodkor asarlarini o'rganish, uning qo'lyozmalarini matniy tadqiq etish, hamda badiiy tahlil qilish mutaxassislarining tadqiq usullarida va qo'lyozmalar yuzasidan matniy-qiyosiy tekshirishlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo manbashunosligi va matnshunosligida ijodkorlar adabiy merosini yig'ish, ilmiy tavsiflash va matn tahriri masalasini o'rganish, ularda jam bo'lgan ijodiy merosni yosh avlod dunyoqarashi va adabiy-estetik tafakkuri rivojiga xizmat qildirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sharq xalqlari qo'lyozma merosini o'rganish va ularning jahon madaniyatini ulkan xazinasiga betakror hissa qo'shganini asoslash muhimdir. Sharq shoirlari qo'lyozmalarini tadqiq qilish borasidagi ilmiy izlanishlarni matnshunoslikning bugungi yutuqlari asosida muttasil davom ettirish va rivojlantirish esa zaruratga aylandi.

O'zbekistonda ham matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ko'p yillik tarixga, ko'plab yutuqlarga ega soha ekanligi ma'lum. "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"¹. O'zbek matnshunosligida olib borilgan bir qator ishlar va sohada erishilgan yutuqlar XIX asr ijodkorlari misolida ham amalga oshgandir. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo'qon adabiy muhitida kamol topgan ijodkorlar salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning orasida hayoti, ijodi va ilmiy-ijodiy merosi hanuzgacha to'liq tadqiq etilmaganlari ham uchraydi. Qo'lyozma merosi o'rganilmagan ijodkorlarning merosini atroflicha tadqiq etish, asarlari manbalarini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish, ularning mumtoz adabiyotdagi o'rnini belgilab berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Xuddi shunday ijodkorlardan biri o'zbek mumtoz adabiyotining uzviy qismi hisoblangan tasavvuf adabiyoti namoyandasi, shayx va shoir Azimxoja eshon (taxallusi Azimiy) XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab, ijod qilgan. "Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgan"² ushbu kunda Azimiyning "Murod-ul-oshiqin" devonini qo'lyozma manbalarini, mazkur devonning qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish, badiiy qimmatini aniqlash masalalari mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarb ekani tasdig'idir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda «Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi» mavzusidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018-yil, 29-dekabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. //Xalq so'zi, 2017-yil 25-may.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-may kuni qabul qilingan PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-noyabrdagi 891-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qila oladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy masalalari bo‘yicha salmoqli ishlar olib borildi. Jumladan, matnshunoslik masalalari, xususan, XIX asr Qo‘qon adabiy muhitiga doir manbalar yuzasidan xorij olimlaridan K.Eraslan, mahalliy olimlardan P.Shamsiyev, I.Sultonov, H.Sulaymon, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, Sh.Yusupov, M.Qodirova, S.G‘aniyeva, A.Madaminov, Y.Ishoqov, E.Ibrohimova, Q.Sodiqov, M.Imomnazarov, N.Jabborov, D.Salohiy, Y.Tursunov, S.Raf‘iddinov, O.Jo‘raboyev, N.Hasan, Z.Qobilova, D.Abdullayeva, A.Dehqonov, D.Zohidova, Q.Pardayev, A.Muhammadiyev, I.Sulaymonov, N.Muhiddinova³ kabi bir qator olimlarning

³ Eraslan K. Azim hæce‘nin hikmetleri. – Istanbul: Türk dili ve edebiyatı dergisi, Cilt 19. 1971. – S.193-230.; Shamsiyev P. Alisher Navoiy «Sab‘ai sayyor» dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida: Fil.fan.nom. ... dis. – Toshkent, 1952. – 128 b.; Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini o‘rganishning ba‘zi masalalari: Fil.fan.nom. ... dis. – Toshkent, 1970. – 128 b.; Sultonov I. Navoiyning “Mezon ul-avzon”i va uning kritik teksti. Fil.fan.nom. ... dis. – Toshkent, 1947. – 133 b.; Sulaymon H. «Xazoyin ul-maoniy» tekstlarini o‘rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari. /Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti, 1959. – B.5-28; Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – Toshkent: FAN, 1961. – 360 b.; Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 150 b.; Abdug‘afurov A. Xazoyin ul-maoniydan chetda qolgan g‘azallar // Navoiyning ijod olami (Maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2001. – 104-121 b.; Yusupov Sh. Furqat yo‘llarida. . – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1984. – 240 b.; Qodirova M. “Nodira hayoti va ijodi”. Filol. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1961. – 182 b.; “XIX asr o‘zbek adabiyotida inson va xalq taqdiri (O‘zbek shoirlari ijodi misolida)”. Filol. fan. d – ri ... dis. – Toshkent, 1975. – 307 b.; G‘aniyeva S. Alisher Navoiy “Majolis un nafois” ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: SSR FA nashriyoti, 1961. – 480 b.; Madaminov A. Uzlat va uning lirik merosi: Filol. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1971. – 163 b.; Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – 187 b.; So‘z san‘ati so‘zligi. –

tadqiqotlari buning dalilidir. Lekin qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham oz emas. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixini o'rganish avvalo matn tadqiqidan boshlanishi zarur.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarning to'liq reyestrini tuzish va elektron katalogini yaratish" (2021-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Azimiy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlarni jamlash, shoirning مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining 12 qo'lyozma nusxasini ilmiy jihatdan ochib berish, ushbu qo'lyozmalar asosida devonning ilmiy-tanqidiy matnini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, XIX asr adabiyoti tarixida muhim o'rin tutgan Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari faoliyatiga doir ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish;

Azimiy (Azimxoja eshon) hayoti va faoliyatiga doir manbalarni yig'ish, ularni qiyosiy tadqiq qilish va shoir biografiyasi haqida mumkin qadar ma'lumotlarni taqdim etish;

Azimiy XIX asr ikkinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitidagi tasavvufiy adabiyot vakillaridan biri ekanligi va uning ijodiy merosi alohida ahamiyat kasb etishini manbalar asosida tahlil qilish;

Azimiy qalamiga mansub she'rlar to'plami مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining qo'lyozma nusxalarini aniqlash, ilmiy tavsif qilish va manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq ishlarini olib borish;

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining qo'lyozma nusxalari va ularning matniy xususiyatlari, nusxalar aro farqlar va o'ziga xos jihatlarni qiyosiy aspektda o'rganish;

Toshkent: Zarqalam, 2006. – 162 b.; Ibrohimova E. Uvaysiy hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1966. – 123 b.; Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent, 2017. – 220 b.; Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari / «O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari» mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – B.28-32; O'zbek matnshunosligining dolzarb muammolari / «Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining yangilanish tamoyillari» mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B.99-105; Matnshunoslikning ayrim nazariy masalalari / "O'zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Qarshi: Nasaf, 2019. – B.3.7; Imomnazarov M. Mumtoz fors she'riyati badiyatshunosligi va janrlar tipologiyasi. – Toshkent: Extremum press, 2015. – 279 b.; Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2018. – 190 b.; Tursunov Yu. Muhokamatu-l-lug'atayn. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: "Fan", 2021. – 160 b.; Rafiddinov S. Azimxoja eshon. – Toshkent: "O'zbekiston", 1993. – 88 b.; Jo'raboyev O. Matnning matnoli sirlari. – Toshkent: «Tamaddun», 2017. – 200 b.; Hasan N. Çağatay şairi Azim hacc ve hikmetleri // Türk dünyası araştırmaları. Sayı: 191. – Turkiya, 2011. – 137 s.; Qobilova Z. Amiriy va uning adabiy faoliyati: Filol. fan. nom. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2007. – 126 b.; Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she'riyati misolida): Filol. fan. d – ri ... dis. – Farg'ona, 2022. – 260 b.; Abdullayeva D. Usmonxo'ja Zoriy hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 24 b.; Dehqonov A. Muhayyirning hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2007. – 25 b.; Zohidova D. G'aribiy va uning devoni: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – 23 b.; Pardayev Q. Muqimiy she'riyatining matn tarixi, tahriri va talqini. Filol fan. d-ri (DSs) ...diss. – Toshkent, 2020. – 310 b.; Muhammadiyev A. Muxyining turkiy va forsiy devoni poetikasi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Samarqand, 2008. – 24 b.; Sulaymonov I. Qoriy Ho'qandiy adabiy merosi: monografiya / – Toshkent: "Tamaddun", 2014. – 196 b.; Muhiddinova N. Mirhasan Sadoiyning adabiy merosi. (Monografiya) – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015. – 143 b.

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va ushbu matn asosida shoir adabiy merosining sahiih matni yuzasidan ilmiy tuzatishlarni taqdim etish.

Tadqiqotning obyeki sifatida Azimiyning مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan №189, O‘zR FASHI asosiy fondida saqlanadigan №12242, 12044, 5992, O‘zR FASHI Hamid Sulaymon fondida saqlanayotgan №2563, 2694, 6354, Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanadigan №6750, 6806, 6209, f.f.n. Otabek Jo‘raboyev va f.f.n. Sayfiddin Rafiddinovlarning shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Azimxoja eshon hayoti, ijodi, manbalari, devonining qo‘lyozma nusxalari va ularning matniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda germenevtik, qiyosiy-tarixiy va biografik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Azimiy (Azimxoja eshon) hayoti va faoliyatiga doir jumladan, tug‘ilgan va vafot sanasi, otasining ismi va nasabi, murshidlik mavqeiga ega ekanligi haqidagi ma‘lumotlar ilmiy istifodaga olib kirilgan;

Azimiy qalamiga mansub مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining 12 qo‘lyozma nusxasi Respublikamiz qo‘lyozma fondlaridan va shaxsiy kutubxonalar orqali aniqlangan;

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devoni nusxalarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, tanlab olingan 5 ta qo‘lyozma asosida مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan;

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonidagi g‘azal, muxammas, musaddas, mustahzod va hikmat singari janrlar va ularning shakliy xususiyatlari ilk bora tekshirilgan hamda shoir ijodiga xos bo‘lgan hikmatlarning g‘oyaviy-badiiy jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Azimiy (Azimxoja eshon) hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixiy-qiyosiy jihatdan yoritib berilgan va ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining davlat fondlarida va shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan 12 qo‘lyozma nusxasi aniqlangan va ularga to‘liq ilmiy tavsiflar berilgan;

مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devoni qo‘lyozmalarini qiyosiy-tekstologik tahlil qilish natijasida devondagi o‘zbek tilidagi she‘rlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan;

Azimiy ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, undagi ayrim obrazlar va diniy tasavvufiy timsollar tadqiq etilishi natijasida muallif badiiyatining o‘ziga xos jihatlarining ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Azimiy devonining O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan №189 raqamli nusxa, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanayotgan №5992, №12242, №12044 raqamli va Hamid Sulaymon fondidagi №2563, №2694, №6354 raqamli nusxalari, Qo‘qon davlat muzey

qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan №6209, №6750, №6806 nusxalar, S.Rafiddinov va O.Jo‘raboyevning shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalar asosida o‘rganilganligi, Azimiy devoni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik doirasida ishlab chiqilgan nazariy metodlarni qo‘llagan holda matniy tadqiqi qilingani, keltirilgan tahlil, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Azimxoja eshon qo‘lyozma devonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashga doir tamoyillar ishlab chiqilgani, ilmiy xulosalar manbashunoslik fani doirasida ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallaridan oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik”, “Ilmiy-tanqidiy matn nazariyasi” fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, darslik, shuningdek, maxsus kurslarni o‘qitish, Azimiy ijodi yuzasidan seminarlar tashkil qilishda tayyor manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Azimiyning «Murod-ul-oshiqin» devoni va uning matniy-qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ahmad Yassaviy uslubida hikmat yozgan shoirlardan biri, tasavvuf adabiyoti namoyandasi Azimxoja eshon XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab, ijod qilgan yetuk mutafakkir to‘g‘risidagi adabiy-tarixiy ma‘lumotlardan, Azimiy qalamiga mansub “Murod-ul-oshiqin” devonining aniqlangan 12 ta qo‘lyozma nusxalari va eng nodir hisoblangan O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyidagi 189 raqamli qo‘lyozma haqidagi mufassal ma‘lumotlarga oid ilmiy-tarixiy ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Sharq qo‘lyozmalari” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanildi. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 21-oktyabrdagi 945-489-960 - son ma‘lumotnomasi). Natijada bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali Azimiy adabiy merosining targ‘ibi hamda bu orqali uning yoshlar tarbiyasidagi roli va unutilib ketishga mahkum bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizdan birining nomini barhayot saqlash, jamiyat, fan oldidagi asosiy vazifa ekanligi, ijodkor haqidagi ma‘lumotlarni aniq, ishonchli tarzda yetkazib berish imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston qo‘lyozma fondlarida “Murod-ul-oshiqin” devonining 12 nusxasi mavjudligi, ularning to‘liq va noto‘liq kitobat qilinganligi, asarning eng mukammal nusxasining Davlat adabiyot muzeyi fondidan aniqlanganligi va ushbu nodir nusxa bilan qiyoslab tadqiq etish orqali asarning boshqa qo‘lyozma va toshbosma-litografik nashrlaridagi xato va chalkash o‘rinlarga aniqlik kiritilganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 2018-2020 yillarda bajarilgan PZ-20170920167 raqamli “Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan toshbosma asarlarning elektron katalogini yaratish va nashrga tayyorlash” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2022-yil 8-noyabrdagi 3/1255-2801-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Murod-ul-oshiqin” devoni tarkibiga kirgan

hikmatlarning ilmiy tavsifini amalga oshirishda hamda elektron katalogni yaratish va nashrga tayyorlashga xizmat qilgan.

Azimiy qalamiga mansub مراد العاشقين (Murod-ul-oshiqin) devonining 12 qo'lyozma nusxasi Respublikamiz qo'lyozma fondlaridan va shaxsiy kutubxonalardan aniqlangan va ilmiy tavsifi amalga oshirilganligi bo'yicha olingan natijalardan Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyida 189 – inventar raqamli bezakli qo'lyozmaning muqovasida, 5992 – inventar raqamli qo'lyozmaning muqovasi, 111^b, 112^a varaqlaridagi miniatyuralar, muhrlar, jadvallar va ularning tavsiflari XIX asr kitobat san'atining namunasi sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Badiiy akademiasining 2023-yil 1-maydagi WN11183384-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Azimiyning orifona hikmatlari va ilohiy ishq kuylangan g'azallarining tahlili hulosalaridan muzeyda saqlanayotgan tasavvuf g'oyalari asosida yaratilgan miniatyuralar ilmiy pasportini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligiga asoslanib, amaliyotga joriy qilinishi, aprobasiyasi ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Azimiy hayoti va ijodining ilmiy o'rganilishi”** deb nomlangan. Ushbu bob ikki fasldan tashkil topgan bo'lib, dastlabki faslida **XIX asr adabiyoti va Qo'qon adabiy muhiti** xususida so'z yuritilgan. Ikkinchi fasl esa **Azimiy ijodining tadqiq etilishi** deb nomlangan bo'lib, XIX asr adabiyoti va Qo'qon adabiy muhiti, Azimiy zamondoshlari haqida fikr yuritilgan, shuningdek, shoir ijodining tadqiq etilishi o'rganilgan.

Azimxoja eshon XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab, ijod qilgan. Azimiyning tug'ilgan yili masalasida ham turlicha fikrlar bildiriladi. O'rganishlar natijasida taxminan tug'ilish sanasi 1770-yillar deb belgilanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, shoir Qo'qon shahrining Sarmozor mahallasida naqshbandiya-xojagon tariqatiga mansub, ziyoli-ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan⁴. Uning “xoja”,

⁴ Jo'raboyev O. Azim Xoja eshon va uning devoni qo'lyozma nusxalari borasida // Adabiyot ko'zguisi. Ilmiy nashr №11. – Toshkent, 2009. B.18.

“eshon” nomi bilan atalishi ma’lum darajada, o‘z davrining ulug‘ murshidlaridan bo‘lganidan dalolat beradi. U o‘z devonidagi musaddaslaridan birida o‘zining diniy-tasavvufiy qarashlarini bayon qilish bilan birga Naqshbandiya tariqatiga mansubligini ba’zi she’rlarida ta’kidlab o‘tgan.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, bu ijodkor haqida bizga qadar kam sonli ma’lumot yetib kelgan. P.Qayyumiy asarlarida birmuncha mufassal ma’lumotni ko‘rish mumkin⁵. So‘ngra, turkiyalik olim Kamol Eraslaning bir maqolasida shoir hikmatlaridan namunalar berilgan⁶. Shuningdek, mustaqillikdan keyin ilk bora taniqli olim S.Rafiddinov 1993-yilda Azimxoja hikmatlarini toshbosma asosida alohida nashr qilgan⁷. Lekin qo‘lyozmalarga to‘xtalib o‘tmagan. Adabiyotshunos N.Hasan ham mavzuga doir tanituv ma’nosida maqolasini Turkiyada e’lon qilgan⁸. Yana A.Madaminov va A.Turdaliyevning ham shunday axborot tarzida maqolasi bor⁹. Biroq, shoir hayoti va devoni qo‘lyozmalari haqidagi ilk mufassal ma’lumot O.Jo‘raboyev tomonidan taqdim etilgan va she’rlaridan namunalar berilgan¹⁰. Tadqiqotchi B.Hasanov ham shoir devoni haqida kichik tadqiqot yaratgan¹¹. Yana qisman ma’lumotlar I.Mannopov tadqiqot ishida ham Azimiyning she’rlari tahlil tariqasida berilgan lekin ular ham qo‘lyozmalar asosida emas.

Azimxojaning otasini ismi manbalarda Kamoliddin xoja deyiladi. Ammo, ushbu tadqiqot davomida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy fondidagi №12044 raqamli qo‘lyozma manbadagi muhrda “Buzrukxoja o‘g‘li Azimxoja” va Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan 6750 raqamli qo‘lyozmaning muqovasi ichida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra otasining ismi Buzrukxoja bo‘lganligi tasdiqlandi.

Azimiy eshon bog‘dor Nizomiddinxojaning bir qiz farzandidan nabirasidir deb ta’kidlangan¹².

Azimiy ammasining o‘g‘li shoir Jaloliy¹³ bilan birga Buxoroda Xalifa Xusayn bin Yusuf Buxoriydan tahsil olganlar. U Jaloliyning o‘limidan so‘ng unga atab ايريلديم (Ayrildim) radifli marsiya yozgan.

Azimiy Buxorodan o‘z yurtiga qaytgach, Xo‘qand shahriga yaqin Kal Do‘shon nomli qishlog‘idagi katta bir masjidga 40 yil imomlik qilgan. Hayotining oxirgi yillarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan, bu haqida quyidagi she’rida ishora qiladi:

Miskin Azim ojiz, a’mo bir mushtipar,
Ravzangizga yetolmayin qondir jigar,
Yo Mustafo, ojiz qulg‘a aylang nazar,
Nazar topgan qulning shavqi ortar ermish.

⁵ Qayumov P. Tazkirai Qayyumiy. I daftar. – Toshkent, O‘zRFA qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. – B.248; Qayumov P. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – B.377.

⁶ Eraslan K. “Azim Hace Hikmetleri” // Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi. – Turkiya, 1971. №1. – S.19.

⁷ Nashrga tayyorlovchi S.Rafiddinov. Azimxoja eshon. Hikmat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B.88.

⁸ Nadirhan Hasan. Çağatay şairi Azim hace ve hikmetleri // Türk dünyası araştırmaları. Sayı:191. – Turkiya, 2011. – S.137.

⁹ А.Мадаминов, А.Турдалиев. Азими / Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Выпуск 4. – Москва, 2003. – С.7.

¹⁰ O.Jo‘raboyev. Azim Xoja eshon va uning devoni qo‘lyozma nusxalari borasida // Adabiyot ko‘zgusi. Ilmiy nashr №11. – Toshkent, 2009. B.11-18 betlar; O.Jo‘raboyev. Irfon she’riyatining sulolaviy namoyandalari// Sharq yulduzi. 2009. №2. – B.164-171.

¹¹ Azimxoja Eshon. Murod-ul-oshiqin. Devon. Nashrga tayyorlovchi: Hasanov B. – Toshkent, 2009. – B.119.

¹² P.Qayyumov. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti. “Tamaddun”. – T.:, 2011. – B.304.

¹³ Jaloliddin Xoja – shayx va shoir, h.1261/ m.1845 yilda Qo‘qonga yaqin Qudash qishlog‘ida vafot etgan.

Po‘latjon Qayyumovning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” nomli kitobida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra – Azimiy olim, obid, taqvodor, sergo‘ya, muhabbatli, notiq va ko‘rkam, to‘la gavdali, oq yuzli, katta soqolli, pokiza odam ekanliklari to‘g‘risida aytib o‘tilgan¹⁴.

Shoirning vafot tarixi hijriy 1263 (milodiy 1847) yil, qabri Qo‘qondagi Sarmozor qabristonida.

Uning qalamiga mansub she‘rlari مراد العاشقین (Murod-ul-oshiqin) nomi ostida bir devonga jamlangan. Shuningdek, shoir asarlari o‘z davridayoq keng ommaga mashhur bo‘lgan, sevilib o‘qilgan.

Ishimizning ikkinchi bobi **“Murod-ul-oshiqin devonining qo‘lyozma nusxalari va matniy tadqiqi”** deb nomlanib, Azimiy devoni qo‘lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi, hamda qo‘lyozmalararo qiyos va ilmiy-tanqidiy matn tuzish tamoyillari xususida fikr yuritilgan. Bobning birinchi faslida **Devon qo‘lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi** yoritildi.

Azimxoja eshon qalamiga mansub مراد العاشقین (Murod-ul-oshiqin) devonining qo‘lyozma nusxalari borasida tadqiq olib borishimiz natijasida mazkur devonning 12 (o‘n ikki)ta qo‘lyozma nusxasi bor ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Avvalo, ushbu devon qo‘lyozmalarining bizga qadar qilingan ilmiy tavsiflari borasida to‘xtalamiz.

Azimiy devonining hozirda O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanuvchi 189 raqamli qo‘lyozma nusxasi ilmiy tavsifi ilk bora “Каталог фонда Института Рукописей” kitobi 1-tomidan o‘rin olgan¹⁵. Ma’lumot berilgan holda devon muallifini Muqimiy va Furqat davri – XIX asr oxiri XX asr boshlari ijodkori sifatida taqdim etilgan. Xuddi shu tavsif va xato ta’rifni biz yana Каталог рукописей Государственного музея литературы им. Алишера Навои katalogida ko‘ramiz¹⁶. Shoirning O‘zR FASHI fondidagi uch nusxasi – 12242, 12044 va 5992 raqamli qo‘lyozmalarining qisqacha tavsifi esa SHI dagi qo‘lyozma devonlar katalogidan o‘rin olgan¹⁷.

Ustoz O.Jo‘raboyev esa asarning yetti qo‘lyozmasini batafsil tavsifini “Azimxoja eshon va uning devoni qo‘lyozma nusxalari” nomli maqolasida keltirgan. Ulardan ikkitasi shaxsiy kutubxonalardagi qo‘lyozmalar bo‘lib, avval hech bir yerda qayd etilmagan.

Tadqiqot davomida aniqlangan devonning 12 qo‘lyozmasi haqida dissertatsiyada to‘liq tavsifiy ma’lumotlar keltirilgan. Ular quyidagilar:

1. №189 raqamli qo‘lyozma. كتاب مراد العاشقین “Murod-ul-oshiqin” (Oshiqlarning murodi-istagi) deya nomlangan. Qo‘lyozma nusxa O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi (DAM) fondida saqlanadi. Mazkur qo‘lyozma Azimiy (Azimxoja eshon) devonining eng to‘liq nusxalaridan biri hisoblanadi. Qo‘lyozma jami 127 varaq (254 bet)dan iborat. Bu qo‘lyozma qolgan 11 ta qo‘lyozmaga nisbatan to‘liqroq va she‘rlar ko‘proqligi bilan farqlanadi. Qolgan

¹⁴ P.Qayyumov. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti. – Toshkent: “Tamaddun”, 2011. – B.321.

¹⁵ Каталог фонда Института Рукописей. Том 1. – Ташкент: Фан, 1989. – С.127-128.

¹⁶ Каталог рукописей Государственного музея литературы им. Алишера Навои. Том 1. – Ташкент, 2006. – С.35.

¹⁷ Собрание Восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Литература (Диваны). Том 1. – Ташкент: Навруз, 2-17. – С.395-396.

qo'lyozmalarga nisbatan savodli, xatosi kam ko'chirilgan va qo'lyozma مراد العاشقين "Murod-ul-oshiqin" deb nomlangan. Taxminimizga ko'ra, ushbu nusxa muallif qo'lyozmasidan ko'chirilgan.

2. №12242 raqamli qo'lyozma. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (SHI) asosiy fondida saqlanadi. ديوان عظيم "Devoni Azim" deb nomlangan. 88 varaq (176 sahifa)dan iborat. Jami 213 ta she'r o'rin olgan. Qo'lyozmaning 88^a varag'ining kolofonida sana 1221 tarzida qo'yilgan va ramazon oyida tugatilgani to'g'risida ma'lumot berilgan. Hijriy 1221 ramazon oyi milodiy hisobda 1806-yilning 12-noyabrdan 11-dekabr kunlariga to'g'ri keladi. Shu o'rinda, bir necha jihatga aniqlik kiritish kerak. Ushbu tarix yozuvining shakli qo'lyozmaning umumiy matn shaklidan o'z uslubiga ko'ra farq qiladi. Jumladan, matnning maydaligi va nasx xat turiga moyilligi seziladi. Shuningdek, ushbu xatning yozilgan siyohisi ham umumiy qo'lyozma siyohisidan biroz farq qilgan. Qo'lyozma 87a varag'ining pastki qismida ham 1221 sanasi bor.

Biroq, qo'yilgan bu sana raqamlarini qo'lyozmaning elektron variantini kattalashtirilgan shaklda o'rganishimizga ko'ra birinchi 2 raqami aslida 3 ekanligi ma'lum bo'ldi.

87^a varaq

88^a varaq

Chunki kotib 3 va 2 raqamlarining yuqori chiziqlarini bir xil qilgani holda 3 raqamining o'rtasiga bilinar bilinmas kichik belgi qo'ygan. Bu sanani 1221 deya o'qish ham mumkin. Shuning uchun, keyingi sahifada ham ushbu xatolik takrorlangan. Qo'lyozma ko'chirilgan sana hijriy 1221 emas, 1321-yil ekan. Bu esa milodiy 1903-yilning 21-noyabrdan 20-dekabr kunlariga to'g'ri keladi.

3. №12044 raqamli qo'lyozma. SHI asosiy fondidagi bu nusxa hijriy 1259 (milodiy 1843) yilda ko'chirilgan. Jami 122 varaq (244 sahifa)dan iborat.

1^a, 10^a va 121^b varaqlariga muhr bosilgan.

Muhr ichiga "Ba lutfi tu ro jannate mushtoqon Azimxoja bin Buzruki zamon 1259" (Allohning lutfi bilan jannatga kirishga mushtoq bo'lgan zamon Buzrukning o'g'li Azimxoja, 1259 (1843)) deb yozilgan. Mazkur qo'lyozmadan jami 207 ta she'r o'rin olgan.

4. №5992 raqamli qo'lyozma. SHI asosiy fondidagi bu qo'lyozma to'liq bo'lmagan nusxa hisoblanadi. Qo'lyozmaning 113^a varag'ida hijriy 1303 (milodiy 1886) yilda ko'chirilgani qayd etilgan. Kotibi va joyi ko'rsatilmagan. 123 varaqdan iborat. Qo'lyozmada jami 219 ta she'r bor.

5. №2563/I raqamli qo'lyozma. SHI, professor Hamid Sulaymon fondida saqlanuvchi nusxa. ديوان عظيم "Devoni Azim" deb nomlangan. Bu qo'lyozma ham nisbatan to'liqdir. Qo'lyozma 123^a varag'ida hijriy 1289 (milodiy 1872) yili

Qo‘qonda ko‘chirilgani qayd etilgan. Kotibi: Mulla Muhammad Zarif xalifa. Mazkur nusxada jami 215 ta she‘r bor.

6. №2694 raqamli qo‘lyozma. SHI, professor Hamid Sulaymon fondida saqlanadi. ديوان عظيم “Devoni Azim” deb nomlangan. Ushbu nusxa ham Azimiy devonining nisbatan to‘liq va xushxat nusxalaridan biri hisoblanadi. Ko‘chirilgan sanasi qo‘lyozmaning 125^a varag‘ida hijriy 1311 (milodiy 1893) yil tarzida qayd etilgan. 125 varaq (250 sahifa)dan iborat bo‘lib, devonda 208 ta she‘r o‘rin olgan. Mazkur nusxaning boshqalaridan yana bir farqi shundaki, uning matnida xech qanday tuzatishlar yo‘q. Matn asosan to‘liq va kam xato bilan yozilgan.

7. №6354 raqamli qo‘lyozma. SHI, professor Hamid Sulaymon nomli qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanadi. Nusxa ديوان عظيم “Devoni Azim” deb nomlangan.

Bu qo‘lyozma notugal nusxa hisoblanadi. Oxirgi varaqlar yirtib olingani sababli kotibi, ko‘chirilgan joyi va sanasi ma‘lum emas. Jami 121 (242 sahifa)dan iborat. Devondan Azimiyning 194 ta she‘ri o‘rin olgan.

8. №6806 raqamli qo‘lyozma. Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanadi. Qo‘lyozmaning 134^b varag‘ida hijriy 1303 (milodiy 1886) yili Qo‘qonda ko‘chirilgani yozilgan. Kotibi: Qoriy. Bu nusxada shoirning jami 211 ta she‘ri o‘rin olgan.

9. №6750 raqamli qo‘lyozma. Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanadi. Devonning mazkur qo‘lyozmasi 1^a varag‘ida ko‘chirilgan sanasini hijriy 1253 (milodiy 1837-1838) yil deya yozilgan. Demak, bu nusxa Azimxoja eshon tiriklik vaqtida ko‘chirilgan qo‘lyozmadir. Shu bilan birga, ayrim sahifalarda muallifni marhum sifatida berilgan. Masalan, 117^a varaqda qizil siyoh bilan shunday yozuv bor: “Hikmati Azimxoja eshon marhumi rahmatullahi alayh”. Ma‘lum bo‘ladiki, qo‘lyozma davr o‘tishi bilan to‘ldirib borilgan. Kotibi: Mulla Nishon Muhammad qori. Qo‘qonda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma “Nazmi suluku va hasbi hol” (tariqat yo‘liga kirganlarning xasbi hollarini she‘riy yo‘l bilan ifoda qilish) deya nomlangan. Devondagi she‘rlar miqdori: 191 ta.

10. №6209 raqamli qo‘lyozma. Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma ko‘p zararlangan, boshi va oxiridagi ayrim varaqlar yirtilgan. Shu sababli manbaning kotibi, ko‘chirilgan tarixi va yerini aniqlashning iloji yo‘q. Qo‘lyozma konvertida saqlanadi. Jami 69 varaq (138 sahifa).

11. Otabek Jo‘raboyev shaxsiy kutubxonasidagi qo‘lyozma. كتاب مراد العاشقين “Murod-ul-oshiqin” (Oshiqlarning murodi-istagi) deya nomlangan. Jami 209 varaq (418 sahifa)dan iborat. Devonning ushbu qo‘lyozmasi 213 ta she‘rdan iborat.

12. Sayfiddin Raf‘iddinov shaxsiy kutubxonasidagi qo‘lyozma. Qo‘lyozma hijriy 1319 (milodiy 1901-02) yilda chiroyli nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Devonning bu nusxasida jami 215 ta she‘r bor. Kotibi va ko‘chirilgan joyi haqida ma‘lumot mavjud emas. Jami 80 varaq (160 sahifa)dan iborat.

Ikkinchi bobning keyingi fasli **“Qo‘lyozmalar aro qiyos va ilmiy-tanqidiy matn tuzish tamoyillari xususida”** deb nomlangan.

Azimiyning “Murod-ul-oshiqin” devonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish, qo‘lyozmani asosiy xususiyatlarini belgilash uchun 12 ta qo‘lyozmadan 5 ta to‘liq bo‘lgan, nisbatan xatosiz bo‘lgan nusxalar tanlab olindi. Ular: Davlat adabiyot

muzeyida saqlanayotgan 189 raqamli nusxa tayanch nusxa sifatida 6750, 2563, 12242 va O.Jo‘raboyevning shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalar.

“Matn tarixini o‘rganish qo‘lyozma asarning mavjud nusxalarini o‘zaro qiyosiy tekshirishdan boshlanadi. Matnlar to‘liq, nuqsonli, tuzatilgan (redaksiyaga uchragan) yoki tugatilmagan ko‘rinishlarda uchraydi”¹⁸. Azimiy devonida ham ushbu ta’kidlangan har to‘rt ko‘rinishga guvoh bo‘lamiz.

Birinchi bo‘lib, mavjud nusxalarni o‘zaro qiyosiy tekshirishdan boshlaymiz. Buning uchun dastlab, ularning holati (to‘liq yoki noto‘liq ko‘rinishi) haqida tasavvur hosil qilish zarur. Buni esa jadvalga soldik:

T/r	Qo‘lyozma devon	Holati (ko‘rinishi)
1.	№189	To‘liq
2.	№12242	Nuqsonli
3.	№12044	Nuqsonli
4.	№5992	Nuqsonli, tuzatilgan
5.	№2563/1	Nuqsonli
6.	№2694	To‘liq
7.	№6354	Nuqsonli, tuzatilgan
8.	№6806	Nuqsonli
9.	№6750	Nuqsonli, tuzatilgan
10.	№6209	Tuzatilgan, tugatilmagan
11.	O.Jo‘raboyev nusxasi	To‘liq
12.	S.Rafiddinov nusxasi	Nuqsonli

Jadvalda ko‘rinib turgan turli holatdagi qo‘lyozmalar yuzasidan tadqiq qilganimizda asl matnni tiklash yoki “sahih matn” tayyorlash birinchi o‘rindagi vazifamiz bo‘ldi. Bu borada, avvalo, qo‘lyozmalararo qiyos, ularning bir-biridan farqi masalasi ham kun tartibida edi.

Matniy tadqiq va qiyos masalalari quyidagicha o‘rganildi:

Birinchi galdagi qiyosni yaxlit she’rlar masalasi sifatida qo‘ydik. Ya’ni, qaysi she’r devonning bir qo‘lyozmasida bor, boshqasida esa yo‘q ekanligi. Ayrim misollar keltiramiz.

“Xaq mavlimni inoyati bo‘lsa kimga” deb boshlanuvchi 8 bandli hikmat 6750 raqamli qo‘lyozmada tushirib qoldirilgan. Qolgan 4 qo‘lyozmada keltirilgan.

“Nafsim yo‘lg‘a kirsun desang ayo tolib” misrasi bilan boshlanuvchi 7 bandlik murabba’ ham №189 va №2563 raqamli qo‘lyozmalardan tushirib qoldirilgan. №6750, №12242 va O.Jo‘raboyev kutubxonasidagi qo‘lyozmada esa mavjud.

Ikkinchi o‘rindagi qiyosni qo‘lyozmada kelgan she’rlarning nomlanishi va janrlarning keltirilish masalasi, deya oldik.

¹⁸ Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. – B.18.

Yuqoriroqda tavsiflari keltirilgan qo‘lyozmalararo she‘rlarning nomlanishi va janrlarning yozilishi jihatidan ayrim o‘ringa qiyoslamali jadval misolida diqqat etsak:

T/r	Boshlang‘ich misra	Farqi
1.	اي دردُ غمينك حاصلِي دُنْيا بيلَه عُقبا	189 qo‘lyozmada musaddas, 12242 qo‘lyozmada esa munojot deyilgan
2.	تونلاری يادینک بیلَه اورتانمدیم چون عندلیب	189 qo‘lyozmada musaddas, 12242 qo‘lyozmada esa munojot deyilgan
3.	ایخواجه که تن من بی تو سقیم است	Boshqa nusxalarda g‘azal, 12242 da na‘t deyilgan.
4.	درد احمدی کویم که اوست خاتیم خاتم	Boshqa nusxalarda g‘azal, 12242 da na‘t deyilgan.
5.	آن احمدیکه بوده فصاحت بکام او	Boshqa nusxalarda g‘azal, 12242 da na‘t deyilgan.
6.	حمد لله قدرتیدین جوش اوروب حمدالله	Boshqa nusxalarda g‘azal, 12242 da na‘t deyilgan.
7.	رحیما توی خالق کن فکان	Boshqa nusxalarda g‘azal, 12242 va 5992 da munojot deyilgan.
8.	ایعشق کیل ایمدی منی کوکسوما مکان قیل	Ushbu she‘r musaddas bo‘lib, 5992 da muxammas tarzida yozilgan.

Uchinchi o‘rindagi qiyosni qo‘lyozmadagi she‘rlarning tarkibiy hajmi, ayrim misra va jumllaridagi farqlar masalasi sifatida qaradik. Ayrim misollarga to‘xtalib o‘tamiz.

دريای جنونیم دلُ جان ایجره یتشیب دور
سر تا سر جسمیمکا تمام اوت اولاشیب دور
نیلای منی دردی طلبیم حدّین آشیب دور
امدی اونوتوب مصلحتیم عقل شاشیب دور

deb boshlanuvchi 18 baytli hikmat №6750 raqamli qo‘lyozmada 16 bayt.

تونلاری يادینک بیلَه اورتانمدیم چون عندلیب misrasi bilan boshlanuvchi №189 nusxada 7 band, №6750 raqamli qo‘lyozmada 6 band, №2563 va №12242 raqamli qo‘lyozmalarda esa 8 bandni tashkil etadi.

To‘rtinchi o‘rindagi qiyosni qo‘lyozmadagi she‘rlar ayrim so‘zlarining yozuvdagi o‘zgarishlari tarzida o‘rgandik. Misollarga to‘xtalamiz.

دريای جنونیم دلُ جان ایجره یتشیب دور deb boshlanuvchi musaddasning 2-bandida keltirilgan:

دريای جنونیم دلُ جان ایجره یتشیب دور
سر تا سر جسمیمکا تمام اوت اولاشیب دور
نیلای منی دردی طلبیم حدّین آشیب دور
امدی اونوتوب مصلحتیم عقل شاشیب دور

Misralardagi ostiga chizilgan so‘zlar quyidagicha o‘zgarishlarga uchragan.

یتشیب دور so‘zi №2563 raqamli qo‘lyozmada تاشوبدور so‘zi bilan, ikkinchi misradagi دور اولاشیب دور so‘zi №6750 qo‘lyozmada va O.Jo‘raboyev nusxasida توتاشیب دور so‘zi bilan, 3 misradagi حدّین so‘zi o‘rniga O.Jo‘raboyev nusxasida حد shaklida, 4 misrada keltirilgan مصلحتیم so‘zi №6750, №2563 hamda O.Jo‘raboyev nusxalarida مصلحتین so‘zi shaklida keltirilgan.

Beshinchi o‘rindagi qiyosni ayrim so‘zlarning shakl o‘zgarishlari tarzida qo‘ydik. Misollarga to‘xtalsak.

misrasidagi یتارنی وصلینکا یتارنی ساغنیب بغری ادامن qo‘lyozmasida یتارکا shaklida keltirilgan.

misradagi شرا بییدین محبتتی شرا بییدین تاتیب بولمس deb yozilgan.

misradagi نفسین کوزین همدم بولمای نفسین کوزین اوپکانلارکا nuxsada نفس کوزینی deb yozilgan.

Albatta, hamma matniy farq yoki so‘z o‘zgarishini ham inobatga olaverish ko‘p qiyinchilik tug‘diradi. Lekin bu o‘rinda asl matnning mazmunini to‘laqonli ochib berish nuqtai nazaridan matniy farqlar hatto harflar o‘zgarishi bo‘lsa ham ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ilmiy-tanqidiy matn tuzishdagi mayda va qiyin qiyosiy tadqiqot sahih matn sari olib boruvchi yo‘l sifatida qaralmog‘i to‘g‘ri bo‘ladi.

“Azimiy devonining tarkibi va badiiyati” nomli uchinchi bobda devonning nomlanishi va tarkibiy xususiyatlari hamda she‘riy matn badiiyati va an‘naviylik masalalari keng tahlil qilingan.

Bobning birinchi fasli **Devonning nomlanishi va tarkibiy xususiyati** deb nomlangan. Mumtoz adabiyot tarixida devon tartib beruvchi shoirlar tomonidan to‘plamlariga nom berish an‘nasi mavjud.

Mazkur an‘nani ma‘lum ma‘noda Azimiy ijodida ham davom etganini ko‘rishimiz mumkin. U o‘z devonini مراد العاشقین “Murod-ul-oshiqin” (Oshiqning murodi-istagi) tarzida nomlagan.

Mazkur nom muallif devonining ikki qo‘lyozmasida o‘z aksini topgan.

Birinchi O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondidagi 189 raqamli qo‘lyozma. Qo‘lyozmaning 125^b varaq hoshiyasida aniq qilib – “Kitobi Murod-ul-oshiqin” کتاب مراد العاشقین deya yozilgan.

Ikkinchi qo‘lyozma O.Jo‘raboyev kutubxonasidagi qo‘lyozmada ham 126^a varaqda مراد العاشقین “Murod-ul-oshiqin” deya qayd etilgan.

Keyin yana bir Qo‘qon adabiyot muzeyida 6750 raqam bilan saqlanuvchi qo‘lyozmada esa حسب الحال و نظم السلوك “Nazmi suluku va hasbi hol” deya nomlangan.

O‘zR FASHI fondidagi 12044, 5992 va shu institut H.Sulaymon fondidagi 6354 qo‘lyozmalarda ديوان عظيم “Devoni Azim” deya nomlangan.

Boshqa qo‘lyozma nusxalarda esa nom ko‘rsatilmagan.

Yuqoridagi faktik jihatlarga ko‘ra Azimiy devonini “Murod-ul-oshiqin” deya berilishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, devon tarkibidagi she‘rlarning mazmun-mohiyati va mundariyasi Haq oshig‘i bo‘lgan soliklarning murodi (istagi)ni nazmga solishdir.

Shu ma‘noda, muallif hayotlik vaqtida hijriy 1253 (milodiy 1837-38) kitobat qilingan 6750 raqamli qo‘lyozma “Nazmi suluku va hasbi hol” deya atalishi ham bejiz emas. “Oshiqning hasbi holi va suluk (tariqat)ning she‘rlari” degan mazmunni ifoda qiluvchi mazkur birikmaning mohiyati ham aynan yuqoridagi “Oshiqlar murodi”ga hamohangdir, deyish mumkin.

Azimxoja eshon devonining tarkibi borasida faqat manbashunos O.Jo‘raboyev “Azimiyning №189 raqamli qo‘lyozma devonida jami 212ta she‘r mavjud. Jumladan, g‘azallar – 158 ta (44 ta o‘zbekcha, 114 ta forsha), murabba‘lar – 29 ta, mustahzod –

3 ta (2 ta o‘zbekcha, 1 ta forscha), muxammas – 7 ta (6 ta o‘zbekcha, 1 ta forscha), musaddas – 13 ta (12 ta o‘zbekcha, 1 ta forscha), masnaviy – 2 ta (forscha)” degan ma’lumotni beradi.

Biz shoir devonining jami 12 qo‘lyozmasini ham qiyosan o‘rgangan holda uning tarkibi va janrlari borasida quyidagi to‘xtamga keldik va uni jadvalga soldik:

T/r	Janr nomi	Adadi	Tili	
			o‘zbek	fors
1.	g‘azal	170	51	119
2.	mustahzod	3	2	1
3.	muxammas	7	6	1
4.	musaddas	13	12	1
5.	hikmat	29	29	-

O‘zbek tilidagi she’rlar miqdori – 2.425 misra, fors tilidagi she’rlar – 1.651 misra. Jami: 4.076 misra.

Ma’lum bo‘ladiki, shoir ijodiy merosida eng ko‘p g‘azal janridagi she’rlar mavjud ekan.

Shoir devonidagi she’rlar tartibi deyarli hamma qo‘lyozmada aynan keladi. Faqat, ba’zi o‘rinlarda she’rlarning joyi almashgani, ketma-ketlikda o‘zgarganini ham ko‘rish mumkin.

Masalan, 12 qo‘lyozma nusxaning o‘ntasidagi fors tilidagi ilk she’r quyidagi misralar bilan boshlanuvchi g‘azaldir:

يا قادر از وصف تو قاصر زبان ما
باشد بقدر چو صله ما بيان ما

2563/I raqamli qo‘lyozma esa

اسم تو بود احمد محمود محمد
وصف تو بود رحمت رب بر همه اشيا

deya boshlangan.

Devon nusxalarida shoirning ayrim she’rlari, xususan, hikmatlar nomlangan o‘rinlarni ham ko‘rish mumkin. Misol uchun,

“In hikmati sifati Haj” deyilgan. “Hikmati hazrati eshon” yoki اين حكمت صفت حج

Shuningdek, ayrim boshqa she’rlarning ham nomlanganini ko‘rishimiz mumkin. Aytaylik, “Musaddasi hazrati eshon” yoki مسدس حضرت ايشان “Musaddasi sifati Haj” kabi.

Endi Azimiy devoni tarkibidagi she’rlarning mazmuniy mundarijasi haqida ham biroz to‘xtalamiz. Mazkur g‘azal matla’siga e’tibor qaratsak:

Yalg‘onni o‘zni tutmak, yaxshi yamon emasmu?

Yaxshi kishig‘a toat beshak nishon emasmu?

Baytda “yaxshi” va “yomon” shunday ajoyib tarzda qarshilantirilyaptiki, beixtiyor o‘quvchi asar mazmuniga oshufta bo‘ladi. Demak, yolg‘onni kasb qilib olgan yaxshi kishi ham yomondir, yaxshi kishining belgisi toat qilmoqdir.

Muallif o‘z ilmiy va irfoniy bilimlarini badiiy holatda g‘azalxonga yetkazadi. Chiroyli o‘xshatish va sodda uslub Azimiy asarlaridagi bu taxlit keng va chuqur mazmunlarni ham o‘zlashtira olish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Azimiy devonidagi boshqa she‘rlar – muxammas, musaddas va hikmatlarda ham g‘azallarida bo‘lgani kabi teranlik hamda diniy-tasavvufiy ma‘noning aks etganini ko‘rish mumkin.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli **“She‘riy matn badiiyati va an‘anaviylik”** deb nomlanib, mumtoz adabiy an‘analar asosida qalam tebratgan ijodkorning asarlarida ifoda etilgan mavzular ko‘lami haqida yoritilgan.

Azimxoja eshon (Azimiy) tasavvuf ilmining bilimdoni, so‘fiy shoir sifatida shariat ahkomlarining asosini tashkil etuvchi imon, salot, haj amallarini bajarish vojibligi bilan birga man‘ qilingan ishlardan tiyilib yaxshi xulq egasi bo‘lish, sunnatlarni bajarish, tariqatda esa tavba qilish, pir yo‘l-yo‘riqlari asosida ish ko‘rish, faqirlik yo‘lini tutish, shariat, tariqat, ma‘rifat, haqiqat maqomlarini bilish va ularga amal qilib Allohning vahdatiga intilish kabi g‘oyalarni kuylagan.

Uning devonidan hikmat, musaddas, g‘azal, na‘t, munojot, muhammas, murabba‘, mustahzodlari o‘rin olgan. Ularning orasida tasavvufiy-irfoniy ohangda yozilgan g‘azal va boshqa lirik janrlarga oid asarlar katta qismini tashkil qiladi.

Azimiy asarlarida ham g‘oyaviy yetuklik bilan birga badiiy takomil birlashgan jihatlar mavjud. Shu bilan birga, shoir ijodiyoti uchun yetakchi mavzu e‘tiqod, ilm-ma‘rifat targ‘ibi, ilohiy ishq tarannumi kabilar shubhasiz shoirning asarlarida ayrim badiiy san‘atlar vositasi orqali voqe‘ bo‘lgandir. Shulardan biri iqtibos san‘atidir. Asrlar davomida ijodkorlar iqtibos san‘atidan keng foydalanib kelganlar. Shu o‘rinda iqtibos san‘ati haqida qisqacha to‘xtalamiz. Iqtibos, arab tilida “قبس” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘atda “ilm o‘zlashtirmoq”, “sitata keltirmoq” va “o‘t olmoq” ma‘nolarini bildiradi.

Azimiy devonida Qur‘ondan keltirilgan iqtiboslar ko‘p uchraydi. Ayrim misollar keltiramiz.

Shoir Rasululloh s.a.v.ga bag‘ishlagan na‘tning ikkinchi bandida:

Xaq kalomida o‘qudi “rahmatan-lil-olamin”

Homii ro‘zi qiyomat, hodii dunyovu din.

Durri daryoyi nubuvvat, sham‘i jam‘i mursalin

Xodimi dargohing erdi Hazrati Ruhul amin

Assalotu vassalom, ey Xojai ikki saro.

Bu yerdagi رحمتٌ للعالمين so‘zi “Anbiyo” surasining 107 oyatiga ishora beradi. Ya‘ni, (١٠٧) وَمَا أَرْسَلْنَاكَ إِلَّا رَحْمَةً لِّلْعَالَمِينَ (Ey, Muhammad!) Biz Sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz.

Ushbu oyatdagi rahmat so‘zi juda keng ma‘noni anglatadi. Ularni bilish uchun Muhammad (a.s.)ning axloq-odoblari, siyrat va shamoillari, shariatlarining bag‘rikengligi, hatto, kufr va shirk ahliga ham zulmni ravo ko‘rmasligi, mehr-oqibat, ezgulik kabi fazilatlar manbai ekanidan xabardor bo‘lish zarur¹⁹.

¹⁹ Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri/Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2007. – B.331.

